

Tahirjanova Diyora

Andijon davlat chet tillari instituti

301 - Gid hamrohligi va tarjimashunoslik guruhi talabasi

Ilmiy rahbar: **Axmedov A'zamjon**

UCHINCHI RENESSANS - DAVLATIMIZ YUKSALISHI UCHUN ENG MUHIM OMILDIR

Annotatsiya: Bu maqolada Renessans inson tarixida qanday o'rin tutgani, uning jarayonlari hamda yurtimizga kerakli ta'siri haqida bayon etadi. Davlatning dunyo miqyosida ildam o'rin egallashi va raqobatdoshlikni ta'minlay olishi kabi omillarni o'zida rivojlantrishi har bir zamonda buyuk shaxslarga borib taqalgan. Shunday ekan renessansning bir joyda uyg'ona boshlashi, olimlarning ko'payishi va yurtga ilmni tadbiiq etishi - misli ko'rilmagan yutuqlar va samaradorliklarni ta'minlay olishi anidir.

Kalit so'zlar: renessans, ajdodlar, tarix, bilim olish, Vatan.

Imom al-Buxoriy, Al-Xorazmiy, At-Termiziy, Ibn Sino, Beruniy, Alisher Navoiy, Bobur, Matrudi, Zamaxshariy... Bu siymolarning mo'tabar ismlarini yana davom ettirish mumkin. Ha ular bizning ulug' ajdodlarimiz, biz esa ularning porloq avlodlarimiz. Biz davomchilar sifatida ularning mehnatlariga sodiq holda yo'llaridan yurmog'imiz ayniqsa hozirgi yoshlar uchun ham farz ham qarzdir. Shunday yo'lga Yo'l boshchilik qilish kabi buyuk kelajakni yaratishga bel bog'lagan bizning Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev nihoyat davlatimizda uchinchi uyg'onish davrini yani "UCHINCHI RENESSANS" davri uchun imkoniyatlar yaratdi: "Biz keng ko'lamlilik demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik."

Renessans - uyg'onish davri demakdir. Uyg'onish davrining asl mazmun - mohiyatini avvalo tushunib olish menimcha, bu davrni boshlash uchun ilk qo'yilgan qadam bo'la olar edi. Renessans sezib turganingizdek, har bir davlat rivoji uchun oltin hissa qo'shuvchi omil demakdir. Buyuk tariximizda shu yillar davomida ikta buyuk renessanslar bo'lib o'tgan (ya'ni, IX-XII va XIV-XV asrlar). Bu davrlar davomida yuqorida sanab o'tmoqchi bo'lgan buyuk ajdodlarimiz xalq manfaatlarini uchun ilk kashfiyotlari va beqiyos ma'naviy boyliklar qoldirib yashab o'tganlar. Uchinchi renessans ham aynan shu maqsadda Yurtboshimiz tomonidan e'tiborga olinayotgani bejiz emas. Tarixga nazar tashlasak ham o'sha iqtidor egalari odil podshohlarining ularga qilgan katta hurmat va qadrlashlari ularning ijodiga katta kuch berganini ko'rishimiz mumkin. Darhaqiqat, agar inson nodir qobiliya egasi bolsa-yu uni qadrlovchi va qo'llovchi insonlar bo'lmasa, har kimni ham o'z vatanidan ixlosi qaytishi gumondan holi emas. Uyg'onish davrining asl mohiyati ham shunda.

Turon xalqida birinchi renessansning vujudga kelishi VIII asrda arablarning yurtimizga kelishi bilan bog'liq. Muqaddas dinimizning yurtimizga nechog'lik baraka olib kelgani IX asrdan o'z isbotini topdi. O'z davrining eng yetuklari bo'lishiga qaramay o'ndan ortiq fanlar bilan shug'ullangan ajdodlarimiz aynan shu qobiliyatlari bilan ham boshqa davlatlardan ustuvorlik qila oladi. Men ularning kashfiyotlarini sanar ekanman yuragimda faxr tuyg'usini qandaydir olov yondirgandek bo'ladi. Abbosiylar davomchisi Ma'mun ibn Horun ar-Rashid asos solgan Bayt al-hikmat yani "donolar uyi" vatandoshimiz Al-Xorazmiy tomonidan boshqarilgan. Bu shaxs alohida e'tirof etish men uchun sharaf. Zamonaviy gadgetlar paydo bo'lishiga sabab bo'lgan "algoritm", uning nomidan yaralgan "algebra" atamalari nafaqat o'zimiz, balki butun

dunyo uchun katta rivojlanishlarni olib keldi. Yana bir olim hisoblangan Al-Fargʻoniy hozirgi Suriyaning Sandjar choʻllaridan turib Yer yuzining medianasini oʻlchagan, asrlardan buyon ishlamay yotgan Nil daryosining sathini oʻlchaydigan asbobni tiklab aholi iqtisodiyotining oʻsishiga oʻz koʻmagini berdi. Yohud Imom al-Buxoriyning "As-Sahih" kitobi dunyoda Qurʻoni karimdan ikkinchi oʻrinda turuvchi kitob maqomiga koʻtarilganligi nahot dillarda vatanga nisbatan mehr, faxr va sodiqlik tuygʻularini uygʻotolmasa?!

XIII asrda Chingiziylarning bosqiniga qaramay oradan bir asr oʻtar oʻtmas yana zaminimizda Ikkinchi renessansga zamin yaratildi. Gʻazal mulkingning sultoni adabiyot, ona tili, tarix, falsafa kabi fanlarda jonbozlik koʻrsatgan oʻzbek klassikasining asoschisi Alisher Navoiy ham dunyo tan olgan shaxslardan biri deyishlaridan koʻzlarim quvonib ketadi. Mirzo Ulugʻbek esa temuriylar davlatining shohi sifatida Samarqand akademiyasini yaratib oʻzi ham olimlik qilgani rost. Abdurahmon Jome, Atoiy, Lutfiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Kamoliddin Behzod kabilar esa xalqni qoloqlikdan maʼrifatga undab turganlar.

Mana 30 yilidirki vatanimiz tinch va osoyishta. Men oʻtmishimizni yodga olar ekanman bugungi kunimiz bilan solishtirgim keladi. Oʻsha davrlarda berilgan imkoniyatlar bizga ham berilmoqda hatto ularnikidan ham aʼlodir. Eʼtibor bergan boʻlsangiz birinchi uygʻonish davrining toʻxtashiga ona yerimizga oʻzgaralar qilgan hujum sababchi boʻlgan. Ancha yillar ilgari shu voqealar yana qaytlanmadimi?! Bizni oʻzligimizdan yiroqlashtirshdi, xalqni koʻzini ochmoqchi boʻlgan jadidlarni esa maqsadlaridan qaytarganlar. Ular aynan adolatsiz yillarda yashaganlari tufayli ijodlarini erkin davom ettira olmaganlari hammaga ayon. Ammo xalqimizga yana mustaqillik qaytib, yana oʻzni tiklamoq uchun imkoniyat paydo boʻldi. Endi biz bemalol bilim ola olamiz, erkin ijod qila olamiz ortiq bizning buyuk tariximizni yoʻq qila olishmaydi. Shunday ekan men ishonaman, misli koʻrinmagan yutuqlarni olib keladigan va dunyoga Oʻzbekistondan tabarruk goʻshani tanita oladigan yoshlar oramizda. Men ham Vatanimning rivojiga hissa qoʻshishni oldimdagi jiddiy bir qarz va Tangri bizga shunday kunlarni nasib qilgani uchun muqaddas bir farz deb bilaman. "Bu uchinchi renessans" sheʼri ham dilimdagi iftihor tuygʻuyimning dalili deb qabul qilishingizni soʻrab qolar edim:

Erkimiz yoʻq, qabih yillar

Necha yostiq qurutdi

Milliylikka ruhimizni

Ancha yillar soʻlitdi.

Bobolarim boyliklari

Oʻzga yurtni boyitdi,

Nahot yana najot qaytdi

Bu uchinchi renessans

Vatanimning tarixini

Yolgʻonlarga burkashdi,

Eh, qancha jadid bobomni

Fitnalarga tashlashdi.

G‘ururimiz bo‘lgan tilni

Zubonlardan ayrishdi,

Nahot yana najot qaytdi

Bu uchinchi renessans

Demang Turkistonni qoloq

Barchasidan ulug‘i u

Kelajagi yetmagandek

Tarixi ham buyugi shu

Dunyo kashfiyotlarining

O‘tmishimiz ildizi-ku

Nahot yana najot qaytdi

Bu uchinchi renessans

Mangu tarranum etamiz,

O‘xshashi yo‘q bu o‘lkani

Biz kelajak bo‘lmay kimmiz?

Sharqning eng zo‘r avlodlari!

Uyg‘onishning aynan payti

Maqsadimiz oliy farz

Biz uyg‘onish vakillari

Bu uchinchi renessans

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Uyg%CA%BBonish_davri
<https://president.uz/oz/lists/view/3864>